Shu bilan birga, tibbiy sug‘urta tizimini davlat budjetidan moliyalashtirish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bu, avvalo, tibbiyot muassasalarining birlamchi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning mablag‘lardan oqilona foydalanishiga imkon yaratadi. Natijada buxgalteriya hisobining metodologiyasi, texnikasi va tashkiliy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi hamda moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy resurslar harakatiga ta’sir ko‘rsatib, ularni nazorat qilishni kuchaytiradi. Shu orqali tibbiyot muassasalarining ish faoliyati samaradorligi va sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash mumkin bo‘ladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, amalga oshirilayotgan islohotlar va strategik chora-tadbirlar tibbiyot muassasalari uchun yer hamda mol-mulk soliqlari bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar yaratishni nazarda tutadi. Bu holat ularning moliyalashtirish tizimiga, ayniqsa daromadlar va xarajatlarni hisobga olish mexanizmlariga ham bevosita ta’sir etadi.

Bugungi kunda sohaga xos moliyalashtirish modeli o‘ziga xos shakl kasb etgan. Bu model nafaqat tibbiyot, balki umumiy budjet muassasalari uchun ham dolzarbdir. Amaldagi buxgalteriya tizimi — daromad va xarajatlarni hisobga olish, pullik tibbiy xizmatlar, tibbiy sug‘urta mexanizmi hamda turli manbalardan ta’minlanadigan moliyaviy resurslarning to‘g‘ri aks ettirilishini talab qiladi. Agar tizim yetarli darajada moslashtirilmasa, u o‘z-o‘zidan samarasiz holga kelib, kelajakda yo‘qolib boradi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan omillar ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya ishining maqsadi — sog‘liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi toifasi sifatida xarajatlarni nazariy jihatdan o‘rganish hamda mamlakatimizdagi davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi va xarajatlarni nazorat qilish metodologiyasini aniqlashtirishdan iboratdir.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutilgan:

1. Davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida xarajatlarni budjet hisobi va nazorat qilish xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

2. Mamlakatda budjetdan moliyalashtiriladigan sog‘liqni saqlash muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishning amaldagi holatini, shuningdek, pullik tibbiy xizmatlarni hisobga olish hamda soliqqa tortish tartibini o‘rganish;

3. Davlat sog‘liqni saqlash muassasalarining buxgalteriya amaliyotida qo‘llanilayotgan pullik tibbiy xizmatlar narxini hisoblashning mavjud metodikalarini baholash va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

4. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi davlat sog‘liqni saqlash muassasalari uchun buxgalteriya hisobi hamda soliqqa tortish siyosati modellarini ishlab chiqish;

5. Viloyat miqyosidagi davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish auditining metodikasi hamda asosiy yo‘nalishlarini belgilash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot muassasalarida debitorlar va kreditorlar hisobini takomillashtirish masalasini tadqiq etar ekanmiz, ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning ishlariga e’tibor qaratish muhimdir. Yurtimizda bu masalalar, asosan, davlat budjeti tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, ularni nazorat qilish va davlat budjet hisobi predmetlarini tahlil etish yo‘nalishida keng o‘rganilganini ko‘rish mumkin. Respublikamizning taniqli iqtisodchi olimlaridan A.K. Ibragimov, T.S. Malikov, B.B. Sug‘irbayev, I.N. Qo‘ziyev, Sh.V. G‘aniyev, A.S. Ramazonov, M. Ostanaqulov, M.X. Saidov, S.U. Mehmonov, D.Y. Ubaydullaev, A.Sh. Kuliboyev, Sh.M. Qurbonov, Sh.N. Xayitov, Sh.A. Alimova, S.Y. Atamurodov, M.S. Sodiqov va boshqalar ushbu yo‘nalishda samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi, asosan, davlat tomonidan moliyalashtirish — ya’ni, davlat budjeti tashkilotlari buxgalteriya hisobi predmeti nuqtai nazaridan yondashilgan. Masalan, S.U. Mehmonov va D.Y. Ubaydullaev muallifligidagi “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” darsligida quyidagicha ta’kidlanadi:

“Budjet tashkilotlari — davlat tomonidan belgilangan vazifalarni (ta’lim, sog‘liqni saqlash, mudofaa, huquqni muhofaza qilish va boshqa tashqi iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatlarni) bajarish uchun tashkil etilgan xo‘jalik subyektlaridir. Ular o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun budjet mablag‘lari hisobidan ta’minlanadi. Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar sarfi asosan budjet tashkilotlariga mablag‘larni yo‘naltirish asosida amalga oshiriladi. Bu mablag‘larning maqsadli va oqilona sarflanishini ta’minlash, shuningdek, ular bo‘yicha tegishli axborotni shakllantirish buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Har bir budjet tashkilotiga mablag‘lar davlat budjetidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida ajratiladi” [11].

Bu fikr shuni anglatadiki, tibbiyot muassasalari davlat tashkilotlari sifatida o‘z faoliyatini davlat budjetidan moliyalashtirilgan holda olib boradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda shiddat bilan rivojlanayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida davlat budjeti mablag‘larining samarali sarflanishi va oqilona taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan hukumat tomonidan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan:

- “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun [1];
- “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun [2];
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori [3];
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori [5];
- O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining bir qator buyruqlari, jumladan:
- “O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tibbiy yordam ko‘rsatiladigan kasalliklar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” gi buyruq [6];
- “Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi buyruq [7];
- “Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladigan respublika darajasidagi davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bemorlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” gi buyruq [8].

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar tibbiyot muassasalarining moliyaviy boshqaruvi, rejalashtirish tizimi va ularning buxgalteriya hisobi amaliyotiga tub o‘zgarishlar kiritdi. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, hisobotlarning aniqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola “Tibbiyot muassasalarida debitorlar va kreditorlar hisobini takomillashtirish” deb nomlanadi. Uni tadqiq etishda, har bir ilmiy izlanishda bo‘lgani kabi, sohaga oid olimlarning ilmiy fikrlari va mulohazalari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar har tomonlama o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, deduksiya, guruhlash va qiyosiy tahlil kabi ilmiy-uslubiy metodlardan keng foydalanildi. Ushbu yondashuvlar tibbiyot muassasalarida debitorlar va kreditorlar hisobini tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur tahlil etish, ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi zamonaviy iqtisodiy sharoitlar shuni taqozo etmoqdaki, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z moliyaviy resurslarini oqilona taqsimlashi, daromad manbalarining barqarorligini saqlashi hamda xarajatlarni minimallashtirishi zarur. Buning eng samarali yechimlaridan biri — bu oqilona tashkil etilgan hisob siyosatidir. Mazkur yondashuv barcha xo‘jalik subyektlariga taalluqlidir. Garchi davlat budjetidan moliyalashtiriladigan subyektlar uchun hisob siyosatining ahamiyati ba’zan kamayganday tuyulsa-da, aslida bu fikr to‘liq asosli emas. Chunki tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimi sohani moliyalashtirish manbalarining kengayishi va diversifikatsiyalanishi hisobiga jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutmoqda.

Shu sababli, bizning fikrimizcha, bugungi kunda tibbiyot muassasalarida ham puxta ishlab chiqilgan hisob siyosatini tashkil etish zarurati ortib bormoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar ushbu sohani resurslar bilan ta’minlashda ishlab topilgan mablag‘larning turli manbalaridan samarali foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday tizim (model yoki mexanizm) bir qator afzalliklarga ega:

- tibbiyot muassasalari faqat davlat budjetidan moliyalashtirishga tayanib qolmaydi;
- sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi, natijada tibbiy xizmatlar sifati va bemorlar bilan ishlash samaradorligi ortadi;
- shoshilinch tibbiy yordam, kasalxonada davolanish va profilaktika tizimi turli bo‘g‘inlarga ajraladi;
- tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi;
- tibbiyot muassasalarining ikkilamchi mablag‘lari hisobidan moddiy-texnik baza mustahkamlanadi;
- shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarining ish haqi hamda moddiy rag‘batlantirish tizimi takomillashadi.

Biroq, bir nechta moliyalashtirish manbalarining mavjudligi tibbiyot muassasalarida aktivlarni hisobga olish va ular bo‘yicha to‘lovlarni to‘g‘ri tashkil etish jarayonida ayrim murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki amaldagi qonunchilikka ko‘ra, budjet va budjetdan tashqari daromadlarni alohida hisobga olish belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, resurslarni diversifikatsiya qilish sharoitida buxgalterlar yangi, keng qamrovli vazifalarni bajarishga tayyor bo‘lishlari zarur. Ular tushumlarni aniq ajratish, har bir to‘lov turiga nisbatan ishonchli hisob yuritish va tegishli hisobotlarni to‘g‘ri tuzishlari kerak. Muhim jihatlardan biri — tibbiyot muassasalarida turli manbalardan tushgan mablag‘larni hisobga olish uchun alohida hisobvaraqlar ochilishi talab etiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi islohotlar doirasida tez tibbiy yordam xizmatlarini moliyalashtirish uchun davlat budjetida alohida dasturlar shakllantirilmoqda. Bu yondashuv tibbiyot muassasalariga sig‘im (masalan, ko‘rpa-to‘shaklar yoki xodimlar soni) uchun emas, balki natijaga qarab to‘lov qilish imkonini beradi. Natijada, bu budjet yukini kamaytiradi hamda resurslardan yanada samarali foydalanishga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil davomida tez tibbiy yordam xizmatiga 13 million 522 ming 771 ta chaqiriq kelib tushgan. Bu 2022-yilga nisbatan qariyb yarim milliontaga ko‘pdir. Eng ko‘p murojaatlar Farg‘ona vodiysi va Toshkent shahridan kelib tushgan [20].

Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, tibbiyot muassasalarida shoshilinch tibbiy yordam, statsionar davolanish va profilaktika tizimlari alohida tashkil etilishi, ularning moliyalashtirish manbalari ham turlicha bo‘lishi lozim. Bu holat daromad manbalarining xilma-xilligini ta’minlab, muassasalarning barqaror faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Bunday tizim tibbiyot muassasalarining o‘zlari uchun ham, favqulodda vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish nuqtai nazaridan ham ijobiy natija beradi. Chunki u resurslarni adolatli taqsimlashni ta’minlaydi, faoliyat samaradorligini oshiradi hamda rag‘batlantiruvchi buxgalteriya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Tibbiyot sohasini moliyalashtirishning yangi strategiyasi va tamoyillarini joriy etish natijasida ma’muriy xarajatlar tizimi ham qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ajratmalar budjet tuzilmasida alohida bo‘lim sifatida aks ettirilmoqda, bu esa soha faoliyatida iqtisodiy samaradorlik va shaffoflikni oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish jarayonida muhim yo‘nalishlardan biri — bu soha xodimlariga mehnatga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishdir. Ish haqi miqdorini bajarilayotgan ishlarning murakkabligi, yuklama darajasi va ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati bilan bog‘lash mexanizmini kuchaytirish zarur. Shu orqali tibbiyot xodimlarining faoliyat samaradorligi oshadi, ular yuqori natijalarga erishish uchun intilishadi. Bundan tashqari, mehnat sharoitlarini yaxshilash va mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Shuningdek, 2022-yil 18-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan o‘tkazgan “Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun” mavzusidagi ochiq muloqot doirasida belgilangan vazifalar nuqtai nazaridan qaraganda, hukumatimiz, ayniqsa Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu masalaga alohida e’tibor qaratayotganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, tibbiyot sohasida keyingi muhim bosqichlardan biri — tibbiyot xodimlarini ishchanlik va samaradorlik darajasini rag‘batlantiruvchi to‘lovlar tizimini yaratish bo‘ladi. Bu chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida quyidagi yo‘nalishlarda foydali natijalar beradi:

1. Umumiy amaliyot shifokorlari, terapevtlar, pediatrlar hamda asosiy yoki to‘liq bo‘lmagan oliy tibbiy ma’lumotga ega mutaxassislar uchun ish sifatini baholash mexanizmini joriy etish.

2. Har bir tibbiy mutaxassislik va lavozim turi bo‘yicha ish faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini alohida baholash tizimini ishlab chiqish.

3. Mijozlar (bemorlar) fikrini ish sifatini baholash mexanizmiga mustaqil bo‘g‘in sifatida kiritish, bu esa tizimda yanada shaffoflikni ta’minlaydi.

4. Ish sifatini baholash mexanizmlarini to‘liq raqamlashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida joriy etish.

Yana bir muhim yo‘nalish — tibbiyot xodimlariga ish haqi fondida ma’muriy, boshqaruv va yordamchi xodimlarni to‘lash uchun zarur bo‘lgan xarajatlarning optimal ulushini aniqlashdir. Shu bilan birga, ushbu xodimlarga tegishli lavozimlar ro‘yxati bir vaqtning o‘zida tasdiqlanishi lozim.

Tibbiyot sohasini moliyalashtirishni qayta tashkil etish natijasida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy rejalashtirishda qisqa va uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Endilikda, budjet mablag‘larini to‘liq ta’minlashga tayanishdan ko‘ra, o‘zini o‘zi moliyaviy jihatdan ta’minlashga yo‘naltirilgan yondashuv tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Shu bilan birga, ayrim tibbiyot muassasalarida rejalashtirish jarayoniga yetarli e’tibor berilmayotgani kuzatiladi. Bunga sabab sifatida, uzoq yillar davomida “baribir oylik beriladi” degan tushuncha, moddiy manfaatdorlikning pastligi hamda texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ko‘rsatiladi. Biroq, bu jarayonni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun buxgalteriya yondashuvini kuchaytirish zarur: ish sifati, shaffofligi, aniqligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan tizimli nazorat mexanizmlari joriy etilishi lozim.

Ayni paytda ayrim muassasalarda mavjud kamchiliklarning asosiy sababi — buxgalterlarning ishi asosan tashqi foydalanuvchilar uchun hisobot tayyorlash bilan chegaralanib qolayotganidir. Fikrimizcha, zamonaviy sharoitda yuqori sifatli moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish uchun tibbiyot muassasalarida bosh buxgalter boshchiligida maxsus moliyaviy tahlil va rejalashtirish guruhi tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu guruhning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- muassasaning joriy faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish;
- rivojlanish istiqbollari va moliyaviy rejalari loyihalarini ishlab chiqish;
- resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish choralarini ishlab chiqish.

Uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish tibbiyot muassasalarining joriy faoliyati hamda rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda to‘liq moliyaviy resurslar bilan ta’minlanish imkonini berishi zarur. Shu bilan birga, ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligi doimiy ravishda nazorat ostida bo‘lishi, tibbiyot muassasalarining moliyaviy holati esa muntazam tahlil asosida baholanib borilishi kerak [12].

Bizningcha, moliyaviy rejalashtirish tizimini boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligini asoslash, xarajatlarni optimallashtirish va ijobiy natijalarga erishishni ta’minlovchi moliyaviy manbalarni aniqlash bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, uzoq yillar davomida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirib kelingan tibbiyot sohasi hozirgi davrda tub islohotlar jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu islohotlar bozor tamoyillariga asoslangan holda, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ham qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, shunga qaramay, sohada ayrim tizimli muammolar hali ham mavjud, jumladan, sohada raqamlashtirish darajasining pastligi, “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” tizimlarining hali to‘liq ishga tushmaganligi, shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarining ish haqi hamda moddiy rag‘batlantirish tizimidagi ayrim kamchiliklar, majburiy tibbiy sug‘urta mexanizmlarining to‘liq ishlab chiqilmaganligi va ushbu tizim haqida aholining, ish beruvchilarning hamda jamoatchilikning yetarli tushunchaga ega emasligi, shuningdek, tibbiyot muassasalarida moliyaviy rejalashtirish masalalariga e’tibor yetarli emasligi, qisqa va uzoq muddatli moliyaviy rejalarning mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Tibbiyot muassasalarida debitorlar va kreditorlar hisobini takomillashtirish masalasini tahlil qilar ekanmiz, yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklar bilan bir qatorda eng asosiy muammo — bu tibbiyot muassasalarining maqsadli moliyalashtirishga, ya’ni davlat budjetiga haddan tashqari tayanib qolganidir. Mustaqil tashabbuskorlikning pastligi, qo‘shimcha moliyaviy resurs manbalarini izlash jarayonining sustligi, shuningdek, shifokor va xodimlarni o‘z ustida ishlashga rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi sohaga xos dolzarb muammolardandir.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi muammolarni oqilona va tizimli hal etish, shuningdek, tibbiyot muassasalarida daromadlar hamda xarajatlarni hisobga olishning aniqligi va shaffofligini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, tibbiyot muassasalarida qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishni rag‘batlantiruvchi mexanizmni yaratish, ya’ni davlat budjetidan tashqari manbalar hisobidan daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining faoliyati samaradorligini oshirish hamda yuqori natijalarga intilishi uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida ish faoliyatini baholashning yangi tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Daromadlar va xarajatlarni hisobga olishni to‘liq raqamlashtirish, bunda zamonaviy axborot texnologiyalari va “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimlaridan keng foydalanish, majburiy tibbiy sug‘urta tizimini to‘liq joriy etish hamda bu borada aholining, jamoatchilikning va ish beruvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini qayta tashkil etish jarayonida tibbiyot muassasalarining daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimi tub o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Bu o‘zgarishlar, birinchi navbatda, moliyaviy rejalashtirishni rivojlantirish, ish haqi tizimini takomillashtirish, resurs manbalarini diversifikatsiya qilish hamda tibbiy sug‘urta mablag‘laridan maqsadli foydalanish zarurati bilan bog‘liqdir. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar esa ushbu masalalarni hududlar kesimida, alohida tibbiyot muassasalari misolida yanada chuqur tahlil etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mehmonov S. U., Ubaydullaev D. Y. *Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi.* — Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2013. – 456 bet.
2. Чернов В. А. (2019). *Организация информационно-аналитического обеспечения в цифровой экономике здравоохранения.* Бухучет в здравоохранении, (4), 4–21.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 4-yanvardagi O‘RQ-399-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 17-maydagi PF-136-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 24-iyuldagi 444-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tibbiy yordam ko‘rsatiladigan kasalliklar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 2019-yil 15-avgustda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3176. https://lex.uz/docs/-4474113
9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i, 2024-yil 7-martda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3500.
10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladigan respublika darajasidagi davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bemorlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 2023-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3438.
11. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 21-may kuni Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishdi. 21.05.2024-y.
12. Sultonova M. (2023). *Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o‘rni va ularni rivojlantirish yo‘nalishlari.*
13. Abdulabbosovna S. M. (2022). *Characteristics of Organization of Accounting in Limited Liabilities.* Gospodarka i Innowacje, 21, 147–151.
14. Qudbiyev N. T., Haydarov U. S. O., Kurbonova S. A. (2022). *Harajatlar hisobining zamonaviy usullari.* Scientific Progress, 3(1), 442–448.
15. Раззакова Д. (2022). *Системы автоматизации бухгалтерского учета — основа эффективного управления экономикой.* Central Asian Journal of Theoretical & Applied Sciences, 3(5), 62–67.
16. Khatamovna R. S. (2024). *The Importance of Effective Organization of Accounting for the Cost of Production in the Context of Economic Modernization.* Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(5), 6–12.

17. Расулова Ш. Х. (2023). *Важность данных о движении затрат для повышения эффективности управления предприятием.*
18. Kizi Z. N. Z. (2024). *Leveraging Artificial Intelligence for Solving Business Challenges.* Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), № 6, 376–384.
19. Исманов И. Н. (2023). *Совершенствование методов расчета производственных затрат и себестоимости выпускаемой продукции.* In *Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики*, 367–370.
20. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti.
21. https://lex.uz/docs/-6020838
22. https://ssv.ssv.uz/
23. https://president.uz/oz/lists/view/7249
24. https://lex.uz/docs/-2856464

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100